

## INGLIZ TILI LEKSIKASINI O'RGATISHNI METODIK TASHKIL ETISH MASALALARI

*Mamadaliyeva Gulbahor Arabjanovna*

*Andijon mashinasozlik instituti akademik litsey ingliz tili fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Chet til o'qitish metodikasida til materiali mufassal tadqiq etilgan soxalardan biridir. Nutqda fikrni ifodalash yoki ifodalangan fikrni tushunib olish uchun til materialini qo'llay bilish talab etiladi.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, chet tilini o'qitish metodikasi, leksikani orgatish, nutq faoliyati, grammatika, fonetika.

### KIRISH

Zamonaviy o'qitish amaliyotida til materiali tushunchasi ikki ma'noda talqin etiladi:

- 1) leksik, grammatik, fonetik va boshqa lisoniy birliklar majmui;
- 2) o'qitish maqsadlaridan kelib chiqqan xolda, til sistemasidan tanlab olingan til minimumi deb atalgan, o'quvchilar uchun chet tili materiali xisoblanadigan birliklar yigindisi.

Til materialini, bir tomonidan, sezgilar yordamida aytish, eshitish, ko'rish va yozish mumkin, ikkinchi tomondan esa, nutq faoliyati turlarida ularni qo'llash va idrok etib tushunish mumkin. Ma'lumki, o'rgatish amaliyotida ingliz tili o'rganishda xar qaysi bosqich va tashkiliy qism (o'quv yurtlari uchun aloxida-aloxida leksik, grammatik, talaffuz, imlo, so'z yasash minimumlari tanlanadi. Tanlash mezonlari umumiyl bo'lsa-da, shakllantirilgan til minimumlari miqdoriy va sifat jixatidan bir-biridan farq qiladi.

Jumladan, litsey va kollejlarda til materialini metodik tayyorlash (tanlash, taksimlash, tasniflash va taqdimot) va o'rganish uchun taqdim etilishi xam o'ziga xos jarayondir.

Zamonaviy chet tilni o'qitish metodikasida leksikani o'rgatish nutq faoliyati turlarini egallash vositasi sifatida talqin qilinadi. Ingliz tili o'qitish metodikasida leksikani o'rgatish ikki bosqichdan iborat jarayon deb qaraladi. Birinchisi, leksikani metodik tayyorlash (tanlash, taqsimot, tasnif, taqdimot) bosqichi bo'lib, ushbu jarayon mazkur soxa metodistlari tomonidan amalga oshiriladi. Ikkinchisi, leksik ko'nikmalarni shakllantirish bosqichi bulib, ushbu jarayonda bevosa o'qituvchi va o'quvchi xamkorlikda faoliyat kursatadi. Ma'lumki, o'qitish metodikasida o'quv sharoitiga karab aktiv (reproduktiv) va passiv (retseptiv) leksika tanlanadi. O'quvchi o'z fikrini bayon etayotganida va o'zgalar nutqida tushuniladigan lugat aktiv leksika deyiladi. Idrok etib tushunishga mo'ljallangan lug'at passiv leksik minimum xisoblanadi.

Leksikani tanlashda quyidagi metodik mezonlar asos qilib olinadi:  
xisob-kitob mezonlari, metodik mezonlar, tilshunoslik mezonlari.

Xisob-kitob mezonida so'zlarning nutqda ko'p qo'llanishi va keng tarqalganlik xususiyatlari, metodik mezonlarda nutk mavzulari xamda o'qitish maqsadlari xisobga olinadi. Tilshunoslik mezonida esa so'zlarning birikishi, suz yasash imkoniyati, ko'p ma'nolilik, uslub jixatdan chegaralanmaganlik, sinonimlarni chegaralash (yakkalash) kabilardan foydalaniladi.

Ikkinci mezonda muayyan ukuv yurtida chet til o'qitishdan ko'zlangai maqsad va tanlangan nutq mavzulari asos buladi. Ma'lumki, boshlangich sinflarda ingliz tili ukitishdan maksad - ijtimoiy-maishiy, siyosiy, badiiy, o'quv-ta'limiy matnlarni ukish xamda dastur doirasida ogzaki nutq malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Mazkur o'quv yurti nutq mavzulari va o'qitish maqsadlari leksik birliklarni tanlashda asosiy vazifasini o'taydi.

Birikish mezoniga ko'ra tanlangan suz boshkalari bilan imkoni boricha kuprok birikmaga kirisha olishi, suz yasash mezonida ulardan koproq yangi birliklar yasalishi ko'zda tutiladi.

Uslubda chegaralanmaganlik deganda, nutk faoliyatining barcha turlari va turli mavzularda ishlatiladigan suzлarni tanlash mezoni tushuniladi.

Aktiv va passiv leksik birliklar birgalikda ukuvchilarning real lugat boyligini tashkil etadi. Real lugat maxsus mashklar bajarish orqali uzlashtiriladi.

Ingliz tilini o'rgatishda o'quvchi xali o'rganmagan, lekin ushbu lugatga duch kelganda o'quvchi uni ona tili, ikkinchi til yoki chet tilning shakliy (formal), ma'noviy (semantik) tomonlarining uxshashligi tufayli bilib olishning ichki imkoni bor leksik birliklar xam mavjud. Ular potensial lugat deb ataladi. Potensial lugatni ogzaki (audiomatnda) yoki yozma (grafikmatnda) shaklda takdim eti lishi chogida bilib olish mumkin. Potensial lugatni ogzaki (audiomatnda) yoki yozma (grafikmatnda) shaklda taqdim etilishi chogida bilib olish mumkin. Boshlangich sinflarda potensial lugat boyligini o'rgatish masalasiga alovida to'xtalish zarur.

Chunki, mazkur sinflarda ingliz tili o'qitishda asosiy e'tibor leksik birliklar bilan ishlashga karatiladi. Potensial leksikada juda ko'p leksik birliklarning ona tili, ikkinchi til va ingliz tilida shakliy- ma'noviy va talaffuz tomonlarida uxshashlik mavjud bulishini kuzatish mumkin. Xozirgacha kollejlarda potensial leksikani urgatish buyicha metodik tadkikotlar bajarilgan. Jumladan, tadkikotchilar J. Jalolov va K. Kiyasova kurilish kollejlarda urganiladigan ingliz tili potensial leksikasini kuyidagicha tasniflashgan: 1) shakli va ma'nosi ona tili, ikkinchi til xamda ingliz tilida ^sshash suzlar (architect - arxitektor, cabel - kabel, cottage - kottej, engineer - injener, metal - metal); 2) shakli va ma'nosi ikkinchi til xamda ingliz tilida uxshash, lekin ona tilida fark kiluvchi suzlar (construction - konstruksiya, instrument - instrument, style - stil);

3) shakli va ma’nosи ikkinchi til xamda ona tilida uxshash suzlar (beton, zal, mebel, mramor, pol, shaxta va x.k.).

Leksikan metodik tashkil kilishdagi navbatdagi tadbir uning taksimotidir. Til materialini taksimlash masalasi metodikada kam e’tibor berilgan soxalardandir. Ukv materialining taksimoti fan asoslarini uranuvchi fanlarda osondan kiyinga, shuningdek, boshka didaktik prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Ingliz tilida nutk faoliyati turlarining organilishi bilan boglik xolda taksimlanadi.

Leksikaning taqsimoti ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) aktiv va passiv leksik minimumlar ajratiladi;
- 2) reproduktiv va retseptiv tarzda egallanadigan leksika kurslar buyicha taksimlab chikiladi.

Ikkinchi boskich taksimoshda leksika yanada kichikrok mikdordagi guruxdarga ajratiladi:

- 1) leksika nutkiy mavzular buyicha darslikda taksimlanadi;
- 2) bir soatlik dare uchun suzlar mikdori belgipanadi;
- 3) mashklar materiali sifatida leksik birliklar tarkatiladi.

Taksimot jarayonida leksik birliklarning xususiyatlari, nutkning idrok etib tushunish (tinglab tushunish, ukish) yoki fikr bayon etish (gapishtish, yozuv) turlari xisobga olinadi.

Xullas, leksikaning taqsimoti kuyidagi metodik mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin:

- 1) leksikani nutk faoliyati shakli(reproduktiv va retseptiv)ga karab ajratish, ya’ni nutq talabiga ko’ra taqsimlash yoki o’qitish maqsadlarini nazarda tutish;
- 2) nutqiy mavzularni xisobga olish;
- 3) o’quvchilar til tajribasini xisobga olish;
- 4) til ichki interferensiyasi(salbii ta’sir)ni bartaraf etishni kuzda tutish;
- 5) yangi grammatik xodisalarini tanish leksik birliklarda, yangi leksikani organilayottan grammatik vositada berish;
- 6) leksik kqyinchiliklarni bulib (chegaralab) o’rgatish.

Uchinchi bosqich - leksikaning tasnifi xam chet til ukitish metodikasida muxim tadbirlardan biri xisoblanadi. Metodistlar ukuvchilarning til tajribasini xisobga olgan xolda organiladigan leksik birliklarni oson/kiyin guruxlarga ajratadilar.

Xorijda va Vatanimizda leksik material tasnifi masalasi metodistlar dikkatini uziga jalb kilib kelmokda. Chet tili o’qitish ruxshunosi X- Xyuz ona tili bilan taqqoslash orqali chet til leksikasini oson va kiyin guruxlarga ajratgan. Taniqli metodist

X- Palmer leksikani shakl, ma’no va qo’llanish yuzasidan tasnif etgan. R. Lado leksikani tillararo interferensiyaga boglab tasnif etishni taklif etgan.

XX asrning oltmishinchi va yetmishinchi yillarida bu boradagi ilmiy, ma’lumotlar umumlashtirildi, yangi tasnif mezonlari o’rtaga tashlandi.

Sobiq Ittifoqda I. V. Raxmanov, V. A. Buxbinder, S. V. Kalinina, L. Z. Yakushina, M. S. Latushkina, N. B. Nikolayev, A. A. Zalevskaya, M. A. Pedanova, Yu. V. Gnatkevichlar turli nuktai nazardan turib, chet til leksikasini toifalarga ajratishgan bulsa, uzbek milliy auditoriyasi uchun J. Jalolov, X. Saynazarov, M. Choriyevlar ingliz tili leksikasini tasnifi ustida tadqiqotlar olib borishgan. Yuqoridagi tadqiqotlarda chet til leksikasining xususiyatlari, tilning ichki va tillaro interferensiyasiga boglab tasniflash, aktiv va passiv lugatga xos qiyinchiliklar o'rganilgan.

**Adabiyotlar:**

1. Жалолов Ж. Ж. Чет тил укитиш методикаси. Чет тиллар олий укув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. -Т.: Укитувчи, 1996.
2. Сатторов Т. К Булажак чет тили укитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. -Т.: ТДЮИ, 2003.